



BANKLARDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BANK AKTIVLARI RENTABELLIGI AHAMIYATI

Djalilov G'ayrat

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0000-1540-3265

djalilovgayrat@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada banklarda moliyaviy barqarorlikning vujudga kelishi va uning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan va baholangan. Ushbu kategoriyaga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari o'rganilgan va tizimlashtirilgan. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital yetarliligi va likvidlikni ta'minlash ko'rsatkichlariga nisbatan olimlarning qarashlari o'rganilgan. Tadqiqotlar asosida ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: banklar barqarorligi, kapital yetarliligi, likvidlik, to'lovga qobiliyatsizlik, aktivlar sifati, kapital va aktivlar rentabelligi.

ЗНАЧЕНИЕ РЕНТАБЕЛЬНОСТИ БАНКОВСКИХ АКТИВОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БАНКОВ

Джалилов Гайрат

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В статье определены и оценены возникновение финансовой устойчивости в банках и ее специфические особенности. Исследованы и систематизированы научные изыскания отечественных и зарубежных ученых по данной категории. Проанализированы взгляды ученых на показатели, такие как достаточность капитала и обеспечение ликвидности, в контексте обеспечения финансовой устойчивости. На основе исследований разработаны научные выводы и предложения.

Ключевые слова: устойчивость банков, достаточность капитала, ликвидность, неплатежеспособность, качество активов, рентабельность капитала и активов.

THE IMPORTANCE OF RETURN ON BANK ASSETS IN ENSURING FINANCIAL STABILITY IN BANKS

Djalilov G'ayrat

The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article identifies and evaluates the emergence of financial stability in banks and its specific characteristics. Scientific studies by local and foreign scholars on this category have been examined and systematized. The perspectives of scholars regarding indicators such as capital adequacy and liquidity in ensuring financial stability have been analyzed. Based on the research, scientific conclusions and recommendations have been developed.

Keywords: bank stability, capital adequacy, liquidity, insolvency, asset quality, capital and asset profitability.

Kirish.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ko'plab omillarga bog'lik bo'ladi ekan. Bu borada, banklarning o'z faoliyati va undagi vujudga keladigan holatlar asosiy omillardan biriga aylanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Moliyaviy barqarorlik keng mazmun kasb etishini ko'plab tadqiqotlardan ko'rishimiz mumkin. Biroq, tijorat banklarida moliyaviy barqarorlik kategoriyasi to'g'ridan-to'g'ri banklarning moliyaviy faoliyatiga bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tadqiqotlarimiz davomida banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital monandligi va likvidlik bilan bog'liq ayrim ilmiy xulosalarni ko'rib chiqdik. Ushbu izlanishlarimiz davomida bank kapitali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan choralarni amalga oshirishga xizmat qiladi ekan. Kapital monandligi yoki etarliligi nisbatan belgilangan talablar milliy va xalqaro standartlar doirasida mezonlar turli darajalarda ekanligini kuzatish mumkin. Bu esa, milliy regulyator tomonidan ishlab chiqilgan va joriy etilgan me'yorlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga bo'lgan zaruratni ko'rsatib beradi.

Shuningdek, likvidlik muammosi bilan bog'liq tendensiyalar ham xalqaro standartlar asosida tartibga solishga qaratilgan yondashuvlarning mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Banklarda to'lovsizlik qobiliyatining vujudga kelishi bilan moliyaviy barqarorlik kategoriyasi o'zining mohiyatini yanada dolzarbliq orqali namoyon qiladi. Shu boisdan, tijorat banklarida moliyaviy barqarorlik kategoriyasini unga ta'sir etishi mumkin bo'lgan barcha ko'rsatkichlarni tizimlashtirishga bo'lgan zaruratni qayd etish lozim.

Bizningcha, banklarning moliyaviy barqarorligini ifoda etadigan yana bir ko'rsatkichlardan rentabellik kategoriyasi hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkich banklarning daromadga ega bo'lish darajasining lozim bo'lgan darajasini baholashga imkon berishi bilan barqarorlikda muhim hisoblanadi.

Tijorat banklarida kapital va aktivlar rentabelligi kategoriyalari keng qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichlarning banklar tomonidan aniqlanishi va baholanishi muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, rentabellik kategoriyasi iqtisodiyot nazariyasida tahlil qilinadigan muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu kategorianing mazmuni foydalilik degan mazmunda ishlatilishini aytib o'tish lozim. Ma'lum bir davrda xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy faoliyatining samaradorligini ifoda etadigan va ushbu holatning natijasi sifatida daromadlilik darajasini ko'rsatib beradigan omil bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Aktivlar rentabelligi va uning nazariy jihatdan banklarning moliyaviy barqarorligiga bo'lgan ta'sirini adabiyotlarda keltirilgan ilmiy xulosalar asosida tizimlashtirishga harakat qilamiz. O'zbekistonlik ko'plab olimlar tomonidan aktivlarning rentabelligi va ularni samarali boshqarishga qaratilgan qator ilmiy asarlar tayyorlangan. Ularning ayrimlarini bu quyida ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Iqtisodiyot fanlari doktori Rahmatov (2020) o'zining doktorlik dissertasiyasida tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirib beradi. U tomonidan tijorat banklarida "aktivlar samaradorligi (daromadlilik)", "aktivlar sifati" va "aktivlar likvidligi" tushunchalarining o'zaro xususiyatlarini tahlil qilib beradi. Uning fikricha, aktivlar samaradorligi bankning daromadlilikini ta'minlashda diversifikasiyalash, baholash va nazorat qilib borish muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi. Tadqiqotlari asosida tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishning uchta darajaga ajratgan holda model taklif etadi.

Iqtisodiyot fanlari doktori Mo'minova (2022) tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarishda samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirishga harakat qiladi. Banklarda innovasion faoliyatni rivojlantirish orqali aktivlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarini keltirib o'tadi. Uning fikricha, jami aktivlari tarkibida foyda keltirmaydigan aktivlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib borish, bank aktivlarini diversifikasiyalashda loyihaviy investisiyalarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, aktivlar samaradorligini oshirishda hududiy kredit dasturlarida hududlarning iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olish zaruratini ko'rsatib o'tadi.

Dos. Muradova (2018) o'zining doktorlik dissertatsiyasida aktivlarning daromadlilik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlarini ishlab chiqishga e'tibor qaratadi. U tomonidan ham aktivlarning daromadlilikini oshirishda diversifikasiyalashga e'tibor qaratadi. Tadqiqotchi aktivlarni diversifikasiyalashga nisbatan miqdoriy mezonlarni kiritishni taklif etadi. Jumladan, bank kreditlarini tarmoqlarga joylashtirishda ushbu tarmoqning bank umumiy kredit portfelidagi ulushi 25 foizdan oshib ketmasligini asoslashga e'tibor qaratadi. Jalb etilgan mablag'lar va aktivlar o'rtasidagi davriylikni o'zaro muvofiqlashtirish lozimligini qayd etadi. shuningdek, Markaziy bank tomonidan majburiy zaxira talablari minimal bo'lgan sifatli aktivlar salmog'ini oshirishga urg'u berib o'tadi.

Dos. Axmedov (2020) tomonidan o'zining doktorlik dissertatsiyasida aktivlarni himoyalash orqali ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qiladi. U tomonidan aktivlarni sekyuritizatsiyalash orqali aktivlarning samaradorligini oshirish nazarda tutib o'tiladi. Jumladan, bank kreditlari asosida qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali mablag' jalb etilishi nazarda tutiladi. Ushbu mexanizmdan samarali foydalanish asosida kredit risklarini boshqa moliya institutlariga transfer qilish imkoniyatini taklif etadi. Natijada, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan shart-sharoit vujudga kelishini asoslashga muvaffaq bo'ladi.

Baxriddinov (2022) o'zining doktorlik dissertatsiyasida aktivlarni samarali boshqarishga qaratilgan ilmiy nazariy yondashuvlarni tizimlashtirishga harakat qiladi. U o'zining ilmiy xulosasida aktivlarni samarali boshqarish quyidagilarni ta'minlashini ko'rsatib o'tadi: me'yoriy risk doirasida maksimal daromadni ta'minlashi va boshqa jihatdan xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan passivlar tarkibini shakllantirishga imkon berishi kabilarni keltirib o'tadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, aktivlar samaradorligi sof daromadlarni oshirishi, foizsiz daromadlarni oshirishi, foizsiz xarajatlarni kamaytirishi, bank ssudalarini tarkibini yaxshilash va likvidlikni oshirishga imkoniyat yaratishi lozim bo'lgan jihatlar bilan o'zining ifodasini topishini qayd etib o'tadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2025 yilning 1 iyun holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan kamayish tendensiyalarini kuzatamiz. 2025 yilda foizli marja miqdori 1,13 barobarga oshgan, foizsiz daromad darajasi 1,23 barobargan o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa, mamlakatimiz tijorat banklarida daromad olish hajmi ortib borayotganligini o'zida ifodalab beradi. Shuning barobarida sof miqdorining ham o'sishi 1,21 barobarga teng bo'lganligini e'tiborga molik deb o'ylaymiz. Umuman olib qaraganda, banklarda daromad olish darajasi milliy iqtisodiyot miqyosida o'sib borish tendensiyasini ko'rsatayotganligini kuzatish mumkin.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda respublikamizda faoliyat olib borayotgan banklar soni o'rganilayotgan davrda 1taga oshgani asnosida daromadlar olish hajmining ham ortganligini ko'rishimiz mumkin. shunday bo'lishiga qaramasdan, banklarda moliyaviy

mablag'lardan foydalanish samaradorligi oshmaganligini qayd etish lozim. Jumladan, kapital rentabelligi 2024 yildan 2025 yil 1 iyuniga qadar 10,1 foizdan 10,3 foizga o'zgarganligini ko'rish mumkin. qolgan barcha holatlarda samaradorlik darajasi kamayganligini ko'ramiz.

1-jadvalda aktivlar rentabelligini 0,1 foiz punktga pasayganligini ko'rsak, aktivlarning qolgan daromadlilik darajalariga nisbati ham sezilarli pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbatan darajasi 0,3 foiz punktga kamayganligi ham ushbu tendensiyalardan biri sifatida misol bo'la oladi.

1-jadval

Bank tizimining daromadlilik ko'rsatkichlari (cbu.uz, n.d.)

Ko'rsatkichlar	Muddat	
	01.06.2024	01.06.2025
Bank tizimi daromad va xarajatlari, mlrd. so'm		
Foizli daromadlar	43 741	49 681
Foizli xarajatlar	30 443	34 614
Foizli marja	13 298	15 067
Foizsiz daromadlar	20 705	26 521
Foizsiz xarajatlar	7 233	9 445
Operatsion xarajatlar	8 425	10 843
Foizsiz daromad (zarar)	5 047	6 233
Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	9 991	11 471
Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	2 944	3 571
Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar)	5 411	6 258
Foyda solig'ini to'lash xarajatlari	1 222	1 183
Sof foyda (zarar)	4 189	5 075
Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari, foizda		
Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	2,0	1,9
Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	10,1	10,3
Sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati	4,7	4,4
Kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalariga nisbati	6,5	6,4
Sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati	5,5	5,1
Sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati	4,8	4,5

Bizningcha, mamlakatimizda banklarning daromadlari hajmi ortib borish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Zotan ushbu daromadlar hajmi ortib borsada, ularning samaradorligi darajasi kamayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Mazkur holatning vujudga kelishi banklarda muammoli aktivlar ulushi ortib borayotganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini faraz qilish mumkin. Shuningdek, moliyaviy faoliyatning rentabellik darajasi kamayib borishi banklarda kapital va aktivlarni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammolar mavjud bo'layotganligini qayd etish lozim. Shu nuqtai nazardan, banklarda rentabellik darajasini aniqlash va uni oshirishga qaratilgan imkoniyatlarni ishga tushirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Bizningcha, bank aktivlari samaradorligini ta'minlashda bir qator ustuvorliklarni belgilash va uni tatbiq etish banklarning moliyaviy barqarorligida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, quyidagi jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchidan, aktivlarning tarkibida foyda keltirmaydigan ulushni bosqichma-bosqich kamaytirib borish. Uning kichik ulushida nolikvid aktivlarning hajmi ortishini oldini olish.

Ikkinchidan, aktivlarning tarkibini diversifikatsiyalashda tarmoqlararo me'yorlarni belgilash bilan aktivlarning risklilik darajasini muvozanatlashga e'tibor qaratish.

Uchinchidan, aktivlarning rentabelligini ta'minlashda riskka tortilgan aktivlarning ma'lum xavflarini transfert qilishga qaratilgan amaliyotni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, aktivlar rentabelligini oshirishda aktivlarning risklilik darajasini qisqartirishga qaratilgan amaliyotni rivojlantirish muhim bo'lmoqda. Shu boisdan, aktivlarni samarali boshqarish dolzarblik kasb etib boradi.

Adabiyotlar/Literature/References:

Axmedov A.S. (2020) *Tijorat banklari aktivlarini sekyuritizatsiyalash amaliyotini rivojlantirish yo'llari: i.f.b.f.d. ... avtoreferati.* – T.: TDIU. – 56 bet.

Baxriddinov Sh. (2022) *Tijorat banklarida aktivlarni samarali boshqarish yo'llari: i.f.b.f.d. ... avtoreferati.* – T.: TMI. – 57 bet.

cbu.uz (n.d.) *O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.* <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/2563282/>

Mo'minova M.B. (2022) *Tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalarini innovasion innovasion boshqarish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferati.* T.: TDIU. – 75 bet.

Muradova L.F. (2018) *O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari aktivlari daromadlilikini oshirish yo'llari: i.f.b.f.d. ... avtoreferati.* – T.: TDIU. – 57 bet.

Rahmatov H.O'. (2020) *Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat bank aktivlari samaradorligini oshirish masalalari: i.f.d. ... avtoreferati.* – T.: O'zR. BMA, – 66 bet.